



Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 337,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **468,9** mlrd. so'mni (**30,2 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 868,1** mlrd. so'mni (**12,9 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **576,8** mlrd. so'mni (**36,6 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 337,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **104,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahrida kamayish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **85,9** % va yirik korxonalar hissasiga **11,1** % to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **33,6** % ulush bilan **1 121,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Xiva tumanida **2,1** % ulush bilan **70,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 868,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **12,9 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **85,9 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,2 %), Bog'ot (99,0 %) va Gurlan (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahrida kamayish sur‘ati kuzatilib 94,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda





	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 337 052,4	104,0	468 933,4	70,0	2 868 119,0	112,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 121 332,1	94,0	380 422,3	68,7	740 909,8	116,0
Xiva	126 206,1	107,2	9 564,4	90,1	116 641,6	108,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	174 071,7	109,0	1 763,1	15,0	172 308,6	116,5
Gurlan	280 140,9	110,7	4 056,6	77,1	276 084,3	111,4
Qo‘shko‘pir	139 164,5	109,8	8 624,4	163,7	130 540,1	107,5
Urganch	332 826,3	104,9	20 371,2	79,2	312 455,1	107,2
Hazorasp	353 888,2	114,0	21 701,8	2,3 m.	332 186,3	110,4
Tuproqqal'a	76 560,9	113,7	168,2	-	76 392,7	113,4
Xonqa	207 441,6	111,1	9 638,9	32,9	197 802,7	125,7
Xiva	87 607,0	106,9	2 096,2	116,9	85 510,8	106,7
Shovot	231 194,5	113,0	4 113,9	34,1	227 080,6	118,0
Yangiariq	136 538,3	105,4	1 063,7	29,3	135 474,5	107,6
Yangibozor	70 080,3	113,2	5 348,5	4,7 m.	64 731,9	106,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **30,0 %** ga kamaydi va **468,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 868,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,9 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,9 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,2 %) va Bog'ot (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (33,9 %), Yangibozor tumani (7,6 %), Xiva shahri (7,6 %) va Qo'shko'pir tumanida (6,2 %) kuzatildi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 760,0** ming so'mni (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,5 %** ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Hazorasp (112,4%), Tuproqqal' (112,0 %), Yangibozor (111,8 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahrida (93,3 %) eng quyi ko'rsatkich kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (7 728,0 ming so'm), Gurlan (1 871,3 ming so'm) va Hazorasp (1 799,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-may

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 760,0	102,5
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	7 728,0	93,3
Xiva	1 346,9	105,6
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	1 043,6	107,2
Gurlan	1 871,3	109,4
Qo'shko'pir	800,3	108,5
Urganch	1 650,1	103,0
Hazorasp	1 799,1	112,4
Tuproqqal'a	1 392,0	112,0
Xonqa	1 099,9	109,5
Xiva	593,9	105,2
Shovot	1 344,9	111,5
Yangiariq	1 164,0	104,0
Yangibozor	794,6	111,8


**UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

Asosiy tarkib, foizda




2021- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **576,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **36,6 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **276,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 117,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **300,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 160,9 %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2021- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkizildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 276,4 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 300,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	576,8	136,6	276,4	117,4	300,4	160,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	115,0	137,8	77,9	140,9	37,1	131,6
Xiva	9,0	102,9	9,0	102,9	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	86,2	134,6	12,7	65,8	73,5	164,2
Gurlan	54,9	136,5	16,3	121,1	38,6	144,1
Qo'shko'pir	40,5	106,7	27,7	102,9	12,8	116,0
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	66,3	150,3	34,6	139,0	31,7	165,0
Tuproqqal'a	17,9	148,4	16,4	147,1	1,5	165,5
Xonqa	55,0	159,8	39,5	142,4	15,5	2,3 m.
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	108,2	136,4	32,7	83,2	75,5	188,6
Yangiariq	15,5	136,2	6,6	107,3	8,9	170,6
Yangibozor	8,3	129,0	2,9	116,8	5,4	136,6

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI



2,0
mlrd. so'm

Tuzlamalar



109,8
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



6,0
mlrd. so'm

Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

41,5
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



7,1
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

24,0
mlrd. so'm



Tuxum

46,4
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

12,3
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

2,8
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 276,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (109,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2,4
mlrd. so'm



Ziravorlar

21,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti


2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **300,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **277,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **20,0** mlrd. so'mni, parrandalar **2,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,3 %** ni tashkil etib, **42,9** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **0,1 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **99,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	42 860,7	100,1	353,2	10,2	42 507,5	108,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	18 711,1	100,1	-	-	18 711,1	106,7
Xiva	1 997,2	100,8	-	-	1 997,2	100,8
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	1 649,5	100,9	-	-	1 649,5	100,9
Gurlan	1 144,3	101,2	-	-	1 144,3	101,2
Qo‘shko‘pir	707,8	104,8	-	-	707,8	104,8
Urganch	6 958,3	101,1	353,2	118,8	6 605,0	100,3
Hazorasp	3 157,1	100,1	-	-	3 157,1	100,1
Tuproqqal‘a	695,5	102,1	-	-	695,5	102,1
Xonqa	1 394,1	102,6	-	-	1 394,1	102,6
Xiva	1 048,2	103,4	-	-	1 048,2	103,4
Shovot	3 735,8	93,6	-	-	3 735,8	189,1
Yangiariq	678,3	101,3	-	-	678,3	101,3
Yangibozor	983,7	102,2	-	-	983,7	102,2

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **945,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,4 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **287,1** mlrd. so'mni (**21,1 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **658,3** mlrd. so'mni (**5,4 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

945,4 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

287,1 mlrd. so'm, 30,4 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

658,3 mlrd. so'm, 69,6 %


Eng yuqori ulushga ega hududlar





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Gurlan tumani (4315,8 m.), Gurlan tumani (759,2 m.), Yangibozor tumani (33,2 m.) va Hazorasp tumani (15,3 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (3,1 m.), Bog'ot (2,4 m.) va Xiva (2,1 m.) tumanlarida qayd etildi. **Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	945 425,4	95,6	287 093,9	78,9	658 331,4	105,4
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	394 766,0	84,0	96 688,8	65,1	298 077,2	92,7
Xiva	25 450,6	101,0	365,3	115,3	25 085,3	100,8
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	32 047,6	2,4 m.	19 272,2	4315,8 m.	12 775,4	95,3
Gurlan	53 935,2	3,1 m.	37 585,3	759,2 m.	16 349,9	94,0
Qo'shko'pir	5 165,0	97,7	3,5	21,1	5 161,5	98,0
Urganch	245 089,4	95,6	129 316,0	91,7	115 773,4	100,3
Hazorasp	8 919,5	106,8	205,8	15,3 m.	8 713,7	104,5
Tuproqqal'a	6 112,8	8,6	14,2	0,0	6 098,6	107,6
Xonqa	30 521,3	79,6	2 844,4	33,9	27 676,9	92,3
Xiva	104 625,6	2,1 m.	18,5	28,6	104 607,1	2,1 m.
Shovot	12 045,4	102,5	26,8	3,5 m.	12 018,5	102,4
Yangiariq	9 303,2	110,1	148,9	7,4 m.	9 154,3	108,6
Yangibozor	17 443,8	125,5	604,3	33,2 m.	16 839,5	121,3




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **658,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,4** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **69,6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Xiva (100,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (30,3 %) va Bog'ot tumaniga (39,9 %) to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: (62) 224-65-09